

Avval xabar [qilganimizdek](#), ayni vaqtda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori T.Teshabayev va Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i J.Abdujalilov Yaponiyaning bir qancha ilg'or universitetlari bilan o'zaro hamkorliklar borasida uchrashuvlarda ishtirok etishmoqda.

TATU delegatsiyasi uchrashuv davomida Keio universitetining professorlari Kan Suzuki, Jun Murai, Masahito Kawamori bilan uchrashib, Keio universitetining fan va texnologiyalar fakulteti bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib oldi.

Kelishuvga ko'ra, Keio universiteti professorlari TATU da amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalar bilan yaqndan tanishish va hamkorlikda ilmiy tadqiqot loyihalarni amalga oshirish uchun O'zbekistonga tashrif buyurishi rejalashtirildi.

TATU matbuot xizmati